

**Marjona G'ayratovna**

*CHDPU pedagogika fakulteti maxsus  
pedagogika logopediya yo'nalishi  
1-bosqich talabasi Sunnatullayeva*

**Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna**

*Gumanitar fanlar fakulteti  
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi  
CHDPU*

**Annotatsiya:** *Xalqimizning ulug' bobokolonimiz Zahriddin Muhammad Bobur hayotiga va ijodiga qiziqishi hattoki, Yevropa xalqlarida ham buyuk ajdodimizning o'tgan hayot yo'li haqidagi afsonaviy va o'z tarixiga ega bo'lgan taqdiriga befarq emasligi bizni quvontiradi. Tarixga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, Zahriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvidagi adolati va xalqchil davlat qurgani o'zbek xalqining qalbida o'chmas iz qoldirgan.*

**Kalit so'zlar:** *Zahriddin Muhammad Bobur, Shayboniyxon, shox va shoir, davlat arbobi, jang-u jadal, temuriylar, sarkarda, buyuk shaxs, ruboiy, g'azal, masna, ulug' siymo.*

### **Kirish**

Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo; 1483-yil 14-fevral - 1530-yil 26-dekabr) – o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo'lgan. Amir Temurning pannevarasi bo'lgan. Bobur o'z davrining buyuk shaxslaridan biri edi. Uning she'rlari, ruboiylari o'z vaqtida va hozir ham sevib o'qilmoqda. Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli g'azali va „Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bobur ijodida, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yor-u diyor sog'inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona noso'zliklaridan nola badiiy tahlil etilgan. Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o'rin tutadi. Uning g'azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma'shuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u axloqi, noz-u karashmasi yengil va o'ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan

tarannum etiladi. Boburning o‘z she‘riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma‘lumotlar ma‘lum emas. „Boburnoma“ ning 1518-1519-yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masna she‘ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit‘alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. Bobur Mirzo mumtazam jangu jadallar ichida yurgan bo‘lsada, „Boburnoma“dek nodir asarni yaratdi, ulug‘ avliyolarning kitoblarini tarjima qildi. Tinimsiz u joydan bu joyga ko‘chib yurish, umrining aksariyat qismini ot ustida o‘tkazganligiga qaramay shunday ulug‘ ishlarni bajarishga ham matonat topa oldi. Ammo o‘zi haqida biror-bir tarixchiga yoki zamondoshi bo‘gan shoirlarga asar yozishlari haqida ko‘rsatma bermadi. Tarixchilar esa o‘z qalb amrlari bilan u haqida asar yozmagan bo‘lsalar ham, o‘z tarix kitoblarida katta-katta boblarni unga bag‘ishladilar. Bobur yashagan davrda o‘zaro urushlar-temuriy shaxzodalar va xokimiyat uchun intiluvchi beklar o‘rtasida kuchaygan bo‘lsada, biroq katta hududda hali ilmiy salohiyat mavjud edi. Hirotda Navoiy taratgan nur, Samarqandda porlagan Ulug‘bek yulduzining shu‘lalari bois bad‘iy va ilmiy tafakkur jilolari hali hamon ko‘zlarni qamashtiradigan darajada yorqin edi. Bobur Andijondan Samarqandga, Samarqanddan Qobulga, Qobuldan Hindisdonga qarab yurishiga qaramay ana shularni ham kuzatar, ulardan bahramand bo‘lagan holda o‘zi ham asrlarga tatigudek asarlar yaratishga intilardi.

Bobur shaxsi haqida o‘yga tolганиmizda Rim imperatorigina emas, yevropaliklar ko‘klarga ko‘tarib maqtaganlari, Atlantika okeanini kesib o‘tib, birinchi bo‘lib Karib dengizida suzgan Xristofor Kolumb esimizga tushadi. Chunki, buyuk shaxslarni yodga olганиmizda ularni boshdan kechirganlari, tarixda o‘z nomlarini qoldirganliklari bilan birma-bir esga kelaveradi. Zahriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga qiziqar ekanmiz, ajib bir holatlarga duch kelamiz. Misol uchun o‘zimda shunday bo‘ldi. Zahriddin Muhammad Boburning bosib o‘tgan yo‘llari, har urushda ko‘rgan talofatlar haqida o‘ylaganimizda va his etганиmizda huddi o‘sha voqea ichida o‘zim qatnashayotganday go‘yoki, Boburning hayotini o‘zgartira olishim mumkin degan hayollar chulg‘ab oladi. Mirzo Zahriddin Bobur podshoh ijodi va hayotini o‘rganish davomida shu narsaga amin bo‘ldimki, uni yaratgan Tangri taolo suyib yaratgan ekan-da, degan xulosaga keldim. Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503-yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur

va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir Mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi.

Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni 1504-yil iyun oyida tark etishga majbur bo‘ladi. Bobur 200–300 kishilik navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azna va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi.

„Bog‘i Shaxrora“, „Bog‘i Jahonoro“, „O‘rtabog‘“, „Bog‘i vafo“ va „Bog‘i Bobur“ kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal‘asini o‘z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta‘mirlatadi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal‘ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladi. 1506-yil bahorda vafot etgan Qutlug‘ Nigorxonim Mirzo Ulug‘bek shu yerda bunyod ettirgan „Bog‘i Navro‘ziy“ga dafn etilgan. Bobur Afg‘onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatadi, uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutadi. Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro‘ orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e‘tiborli o‘ringa ko‘tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalil desam adashmagan bo‘laman. Bobur shu taklif bo‘yicha Hirotga o‘tlanadi. Husayn Boyqaroning to‘satdan vafot etishiga qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o‘tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniyxon qo‘shinlariga to‘siq qo‘yish rejalari amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo‘ldan chiqaradi. 1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalari amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. O‘zbek sultonlari Hamza sulton, Mahdi sulton, Mamaq sulton Bobur qabulida nihoyat, 1525-yilda Bobur 12 ming qo‘shin bilan Hindistonga yurish boshladi. 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi.

Oradan ko'p o'tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi. Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg'onistonda bo'lganidek, ko'plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshiradi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Tarqoqlik va parokandalikka, o'zaro ichki nizo, qirg'inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Qurilish ishlariga boshchilik qiladi. Agrani o'ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi. Biz ulug' bobokalonimiz hayotiga boshidan kechirganlariga nazar solar ekanmiz, ular haqida maqola, hikoya, asar yozishga qo'l urar ekanmiz, qancha yozsak, qancha ta'riflasak hech ham adog'iga yetolmaymiz. Ular bizning qalbimizda mangu yashaydilar.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, hozirgi kunga kelib, prezidentimiz Zahridin Muhammad Bobur bobomizni xotiralarini mangulashtirish uchun ko'cha, istirohat bog'lari, kutubxonalarga ularning nomi berilib ularni nomini mangulshtirish yo'lida bir qancha ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Shunday buyuk insonni nomini kelajak avlod uchun ham shunday taniqli va o'z tarixi bo'lgan shaxsni o'rnak qilib ko'rsata olishimizdan faxrlanaman.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

136. Mirahmedova, S. N. (2021). Is'xoqxon Ibrat asarlarida ma'naviy-axloqiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 770-778.
137. Nusratilloevna, M. S. (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(7), 128-130.
138. Mirahmedova, Shohida (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(7), 135-137.
139. Mirahmedova, S. (2023). Ma'naviy makonga oid yondashuvlar. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
140. Nadim, H. (2021). Afg'oniston o'zbeklari to'y-marosim etnografizmlarining forsiy lug'atlardagi ko'rinishlari. NamDU ilmiy axborotnomasi.
141. Pazilova, M. E. (2004). Pedagogical bases of formation of student's spirituality by means of hadiths. pfn dissertation.

142. Ermekbaevna, P. M. (2021). Development of intellectual activity of students through the heritage of our ancestors. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(8).
143. Pazilova, M. (2022). Талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш-давр талаби. *Science and innovation*, 1(B8), 1288-1294.
144. Pazilova, M. E. (2017). Didactic Opportunities in Pedagogical Cooperation. *Eastern European Scientific Journal*, (5), 54-58.
145. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.
146. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. *Innovative engineering and management research*, 10(01), 227-232.
147. Kadirova, O. K. (2021). Comparative typological analysis of Russian-Uzbek literary relations in their historical development. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(12).
148. Kadirova, O. K.; Kadirova, Z. Z. (2023). O'zbek teminologiyasi. *Darslik*, 1(1), 155.
149. Кадирова, О. Х., & Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. *Журнал филологических исследований*, 1(2), 156-160.
150. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.
151. Кувондиқов, С. С. (2023). Structure and long-term dynamics of competitive activity of highly qualified basketball players. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 6(3).
152. Sidikovich, K. S. (2023). Analysis of national and foreign experiments on the diagnosis of processes for the development of a sense of patriotism. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 243-248.
153. Kuvondikov, S. S. (2023). Model for the development of a sense of patriotism in future educators. *Confrencea*, 6(6), 289-292.
154. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.
155. Sidikovich, K. S. (2023). Theoretical bases of developing a sense of patriotism in future teachers based on the competence approach. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 363-366.

156. Кувондиқов, С. (2022). Связь эмоций с психическим состоянием борцов высокой квалификации. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(7).
157. Quvondiqov, S. S. (2023). Vatanparvarlik tarbiyasiga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiiq etish ijtimoyi zarurat sifatida. *Pedagogika*, 1(3), 33-37.
158. Quvondiqov, S. S. (2023). Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jara yonlarini tashxis etishga doir milliy va xotilyu t ajribalar t anlili. *TDPU Ilmiy axborotlari*, 1(3), 248-254.
159. Mirahmedova, S. (2023). Harakatlar strategiyasi-O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqich asosi hamda jamiyatdagi o'zgarishlar. *PEDAGOG*, 6(5), 42-54.
160. Mirahmedova, S. (2023). Mafkuraviy makon tushunchasining mazmun-mohiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 180-182.
161. Mirahmedova, S. (2023). Ma'naviy makon: imkoniyat va istiqbollar. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(5), 93-95.
162. Nusratilloeyvna, M. S. (2023). Spiritual Space: Opportunities and Prospects. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(9), 230-234.